УДК 911.375(575.1)

SURXONDARYO VILOYATI KICHIK SHAHARLARI TIPOLOGIYASI VA ULARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASH

Qurbonov Paxlavon Rustamovich
Qarshi davlat universiteti, geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Choriyev Jumanazar Almirzayevich
Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada Surxondaryo viloyatining yettita kichik shahri – Denov, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Boysun va Sharg‘unning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kompleks baholangan. Viloyat statistika boshqarmasining 2016–2026-yillardagi ma’lumotlari va ekspert baholari asosida demografik, iqtisodiy, tabiiy-resurs omillari va iqtisodiy-geografik o‘rinni qamrab olgan sakkiz ko‘rsatkichli integral indeks hisoblangan. Ko‘rsatkichlar min-max usulida normallashtirilgan, natijalar sezgirlik tahlili bilan tekshirilgan. Shaharlar rivojlanish darajasi yuqori, o‘rta va past bo‘lgan uch guruhga ajratilgan. Yetakchi funksiyalar va geografik o‘rniga ko‘ra kichik shaharlarning yettita funksional tipi ajratilib, sxematik kartasi tuzilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik shahar, urbanizatsiya, integral indeks, funksional tipologiya, kompleks baholash, iqtisodiy-geografik o‘rin, o‘sish qutbi, Surxondaryo viloyati.*

ТИПОЛОГИЯ МАЛЫХ ГОРОДОВ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА ИХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Курбанов Пахлавон Рустамович
Каршинский государственный университет, доктор географических наук (DSc), доцент
Чориев Жуманазар Алмирзаевич
Магистрант Каршинского государственного университета

Аннотация. *В статье дана комплексная оценка социально-экономического развития семи малых городов Сурхандарьинской области – Денау, Шерабада, Джаркургана, Шурчи, Кумкургана, Байсуна и Шаргуня. На основе данных областного управления статистики за 2016–2026 гг. и экспертных оценок рассчитан интегральный индекс из восьми показателей демографических, экономических, природно-ресурсных факторов и экономико-географического положения. Показатели нормированы методом min-max, устойчивость результатов проверена анализом чувствительности. Выделены три группы городов с высоким, средним и низким уровнем развития и семь функциональных типов.*

Ключевые слова: *малый город, урбанизация, интегральный индекс, функциональная типология, комплексная оценка, экономико-географическое положение, полюс роста, Сурхандарьинская область.*

TYPOLOGY OF SMALL TOWNS IN SURKHANDARYA REGION AND A COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF THEIR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT

Kurbanov Pakhlavon Rustamovich
Karshi State University, Doctor of Geographical Sciences (DSc), Associate Professor
Choriev Jumanazar Almirzaevich
Master's student at Karshi State University

Annotation. *The article assesses the socio-economic development of seven small towns in Surkhandarya region of Uzbekistan – Denov, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on,*

Boysun and Sharg‘un. Based on regional statistics for 2016–2026 and expert scores, a composite index of eight indicators was calculated, covering demographic, economic and natural-resource factors and economic-geographical position. The indicators were normalised by the min-max method, and the robustness of the results was verified by sensitivity analysis. The towns were divided into three groups with high, medium and low levels of development, seven functional types were identified, and a schematic map was compiled.

Keywords: *small town, urbanization, composite index, functional typology, comprehensive assessment, economic-geographical position, growth pole, Surkhandarya region.*

Kirish. Urbanizatsiya darajasini oshirish va aholi punktlari tizimini mutanosib rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi hududiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son Farmoni [1] va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [2] kichik shaharlar va tuman markazlarini kompleks rivojlantirish, ularda yangi ish o‘rinlarini yaratish vazifalarini belgilagan. Bu vazifalarni hal qilishda har bir kichik shaharning hozirgi rivojlanish darajasini ob’ektiv baholash va uning hududiy tizimdagi o‘rnini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyati urbanizatsiya darajasi eng past hududlardan biridir. 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatning 3 011,0 ming kishilik doimiy aholisidan 1 087,0 ming kishi (36,1 %) shahar joylarida istiqomat qilgan, holbuki respublika bo‘yicha bu ko‘rsatkich qariyb 51 foizni tashkil etadi [12; 15]. Viloyat shahar aholisining 19,6 foizi Termiz shahrida, 22,7 foizi yettita kichik shaharda yashaydi, qolgan 57,7 foizi esa funksional jihatdan qishloqqa yaqin bo‘lgan shaharchalarda tarqoq joylashgan. Bu holat kichik shaharlarni viloyat hududiy tizimining tayanch markazlari sifatida rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Viloyatning kichik shaharlari aholi soni, iqtisodiy ixtisoslashuvi va geografik o‘rni bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Shu sababli ularni rivojlantirishning yagona andozasini qo‘llash samarasiz bo‘lib, har bir shaharning o‘ziga xos imkoniyat va cheklovlarini hisobga olgan tabaqalashtirilgan yondashuv talab etiladi. Mazkur maqolaning maqsadi Surxondaryo viloyati kichik shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini integral indeks yordamida kompleks baholash va ularning funksional tipologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kichik shaharlarning hududiy tizimdagi o‘rnini tushunishning nazariy asosini W. Christaller [5] va A. Lösch [6]ning markaziy o‘rinlar nazariyasi tashkil etadi. Unga ko‘ra aholi punktlari ko‘rsatadigan xizmatlar darajasiga mos ravishda ierarxik tizim hosil qiladi, kichik shaharlar esa qishloq aholi punktlari bilan viloyat markazi o‘rtasidagi o‘rta bo‘g‘in hisoblanadi. F. Perroux ning o‘sish qutblari konsepsiyasi [7] va J. Friedmann ning “markaz – periferiya” modeli [8] iqtisodiy rivojlanishning ayrim markazlarda to‘planishi va keyinchalik atrofga tarqalishi qonuniyatlarini ochib berib, kichik shaharlarni ikkinchi darajali o‘sish qutblari sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Shaharlarni funksional jihatdan tasniflash masalalari G.M. Lappo [3] va E.N. Pertsik [4]ning geourbanistik tadqiqotlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda shaharlar yetakchi funksiyasi, geografik o‘rni va rivojlanish dinamikasi bo‘yicha guruhlanadi. Xalqaro miqyosda Yevropa Ittifoqi, OECD va BMT tomonidan qabul qilingan “urbanizatsiya darajasi” metodologiyasi aholi soni va zichligi asosida shaharlar, kichik

shaharlar va qishloq hududlarini ajratishning yagona mezonlarini taklif etadi [10]. Hududlarning rivojlanish darajasini baholashda ko‘rsatkichlarni normallashtirish va vaznli yig‘indi shaklida umumlashtirishga asoslangan kompozit indekslar keng qo‘llaniladi; bunday indekslarni tuzish tartibi va ularning sezgirligini tekshirish uslublari OECD qo‘llanmasida batafsil yoritilgan [11].

O‘zbekistonda shaharlar geografiyasi A.S. Soliyev va S.K. Tashtayeva [9] tomonidan tizimli o‘rganilgan bo‘lib, ularning ishida respublika shaharlarining shakllanish bosqichlari, funksional tiplari va aholi dinamikasi tahlil qilingan. Kichik va o‘rta shaharlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati H.I. Qurbonaliyeva [13] tomonidan ko‘rib chiqilgan. Biroq Surxondaryo viloyati kichik shaharlarining rivojlanish darajasini so‘nggi statistik ma’lumotlar asosida miqdoriy baholash va ularni funksional tiplarga ajratish masalasi alohida tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot obekti sifatida Surxondaryo viloyatining viloyat markazi bo‘lmagan barcha yettita shahri olindi. Axborot bazasini Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2016–2026-yillar uchun tumanlar kesimidagi shahar va qishloq aholisi soni [12], 2025-yil yanvar–sentabr oylari uchun sanoat ishlab chiqarishi [14] bo‘yicha rasmiy ma’lumotlari hamda shaharlarning tarixiy aholi ko‘rsatkichlari [9] tashkil etdi. Tuman tarkibidagi shaharlar bo‘yicha joriy iqtisodiy ko‘rsatkichlar alohida e’lon qilinmaganligi sababli, bir qator ko‘rsatkichlar shahar joylashgan tuman darajasida olindi. Kichik shaharlar aholisining 2026-yil boshidagi soni esa shaharning tuman shahar aholisidagi ulushi o‘zgarmagan degan faraz asosida baholandi:

$$P_i(2026) = P_i(2016) \times S_k(2026) / S_k(2016) \quad (1)$$

bu yerda P_i – i-shahar aholisi; S_k – shahar joylashgan k-tumanning shahar aholisi soni.

Rivojlanish darajasini baholash uchun to‘rtta omillar guruhini qamrab olgan sakkizta ko‘rsatkich tanlandi (1-jadval). Ulardan beshtasi statistik, uchtasi (transport-geografik o‘rin, funksional xilma-xillik va turistik-rekreatsion salohiyat) ekspert baholash asosida 1 dan 5 gacha ballda aniqlandi. Ekspert ko‘rsatkichlarining sub’ektivligini cheklash maqsadida ularning umumiy vazni 0,35 dan oshirilmadi.

1-jadval

Kichik shaharlar rivojlanishini integral baholash ko‘rsatkichlari tizimi

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Omillar guruhi	Vazni
1	Shahar aholisi soni (2026-yil boshi, baholash)	ming kishi	Demografik	0,15
2	Tuman shahar aholisining o‘sishi (2016–2026)	%	Demografik	0,10
3	Tumanning urbanizatsiya darajasi (2026)	%	Demografik	0,10
4	Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti (2025-y)	ming so‘m	Iqtisodiy	0,20
5	Termiz shahrigacha masofaga teskari kattalik	1/km	Iqtisodiy-geografik o‘rin	0,10
6	Transport-geografik o‘rin	1–5 ball	Iqtisodiy-geografik o‘rin	0,15

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Omillar guruhi	Vazni
7	Funksional xilma-xillik	1–5 ball	Iqtisodiy	0,10
8	Turistik-rekreatsion salohiyat	1–5 ball	Tabiiy-resurs	0,10

Manba: *muallif ishlanmasi.*

Turli o‘lchov birliklariga ega ko‘rsatkichlarni taqqoslash uchun ular min-max usulida normallashtirildi:

$$x_{ij}^* = (x_{ij} - x_j\ min) / (x_j\ max - x_j\ min) \quad (2)$$

bu yerda x_{ij} – i-shaharning j-ko‘rsatkich bo‘yicha qiymati; x_j min va x_j max – j-ko‘rsatkichning eng kichik va eng katta qiymatlari. Integral indeks normallashtirilgan ko‘rsatkichlarning vaznli yig‘indisi sifatida hisoblandi:

$$I_i = \Sigma\ w_j \cdot x_{ij}^*, \quad \Sigma\ w_j = 1 \quad (3)$$

bu yerda w_j – j-ko‘rsatkichning vazni. Indeks qiymatlari 0 dan 1 gacha o‘zgaradi va quyidagi shkala bo‘yicha talqin qilindi: 0,60 va undan yuqori – rivojlanish darajasi yuqori; 0,40–0,59 – o‘rta; 0,40 dan past – past. Natijalarning ishonchliligi ikki muqobil vaznlar to‘plami bilan sezgirlik tahlili orqali tekshirildi. Funksional tipologiya esa integral baholash natijalari, shaharlarning yetakchi funksiyalari va geografik o‘rnini sifat jihatdan umumlashtirish asosida ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama. Integral baholashning boshlang‘ich ko‘rsatkichlari va natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kichik shaharlar barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, aholi soni bo‘yicha eng yirik Denov (92,0 ming kishi) va eng kichik Sharg‘un (13,3 ming kishi) shaharlari o‘rtasidagi farq qariyb 7 baravarni, aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish bo‘yicha esa Jarqo‘rg‘on (4 263 ming so‘m) va Boysun (1 437 ming so‘m) o‘rtasidagi farq qariyb 3 baravarni tashkil etadi.

2-jadval

Kichik shaharlar rivojlanishini integral baholashning boshlang‘ich ko‘rsatkichlari va natijalari

Ko‘rsatkichlar	Denov	Sherobod	Jarqo‘rg‘on	Sho‘rchi	Qumqo‘rg‘on	Boysun	Sharg‘un
X1, ming kishi	92,0	35,0	26,8	30,1	17,9	32,1	13,3
X2, %	17,5	20,3	17,9	20,3	20,1	16,2	16,5
X3, %	35,1	29,7	19,9	34,3	32,3	42,0	19,0
X4, ming so‘m	2 238	3 710	4 263	3 403	2 325	1 437	2 976
Termizgacha masofa, km	130	60	35	105	80	145	170
X6, ball	5	4	4	4	5	3	2
X7, ball	5	3	3	3	3	3	1
X8, ball	4	4	3	2	1	5	2
Integral indeks	**0,64**	**0,62**	**0,57**	**0,53**	**0,45**	**0,34**	**0,14**
Rivojlanish darajasi	yuqori	yuqori	o‘rta	o‘rta	o‘rta	past	past


Manba: *[9; 12; 14] ma'lumotlari va ekspert baholash asosida muallif tomonidan hisoblangan. Sharg'un uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar Sariosiyo tumani bo'yicha olingan.*

Integral indeksning tarkibiy qismlari 1-rasmda ko'rsatilgan. Rasm har bir shaharning umumiy natijasi qaysi omillar hisobiga shakllanganini ko'rish imkonini beradi.

1. Rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan shaharlar (I ≥ 0,60) – Denov (0,64) va Sherobod (0,62). Denovning yuqori natijasi asosan aholi soni, transport-geografik o'rni va funksional xilma-xilligi hisobiga shakllangan. Shahar viloyatning ikkinchi yirik shahri, temir yo'l va Tojikistonga olib boruvchi avtomobil yo'lining tuguni, eng yirik savdo markazlaridan biri bo'lib, qo'shni tumanlar uchun tumanlararo xizmat ko'rsatish markazi vazifasini bajaradi. Biroq aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha Denov tumani viloyat o'rtachasidan (3 235 ming so'm) past bo'lib, bu uning zaif tomoni hisoblanadi. Sherobodning yuqori o'rni uning muvozanatlashgan profili bilan izohlanadi: sanoat ko'rsatkichi yuqori, Termizga nisbatan yaqin, E60 xalqaro yo'lagida joylashgan, turistik-rekreatsion salohiyati yuqori.

1-rasm.

Kichik shaharlar rivojlanishining integral indeksi va uning tarkibi



Manba: *muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.*

Baholash natijalariga ko'ra kichik shaharlar uch guruhga ajraldi.

2. O'rta darajada rivojlangan shaharlar (0,40 ≤ I < 0,60) – Jarqo'rg'on (0,57), Sho'rchi (0,53) va Qumqo'rg'on (0,45). Jarqo'rg'on Termizga eng yaqin kichik shahar bo'lib, aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish bo'yicha guruhda birinchi o'rinda turadi, biroq tumanning urbanizatsiya darajasi juda past (19,9 %). Bu shaharning Termiz aglomeratsiyasi ta'sir zonasiga tortilib borayotganini ko'rsatadi. Sho'rchi agrosanoat va yengil sanoat yo'nalishida barqaror rivojlanmoqda va shahar aholisi o'sishi bo'yicha yetakchilar qatorida. Qumqo'rg'on temir yo'l tuguni sifatida yuqori

transport salohiyatiga ega, biroq aholisining kichikligi va turistik salohiyatning pastligi uning umumiy natijasini pasaytirgan.

3. Rivojlanish darajasi past bo‘lgan shaharlar (I < 0,40) – Boysun (0,34) va Sharg‘un (0,14). Boysun eng yuqori turistik-rekreatsion salohiyat va urbanizatsiya darajasiga ega bo‘lsa-da, sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha viloyatda oxirgi o‘rinda va Termizdan uzoqda joylashgan; bu salohiyati katta, biroq hali to‘liq amalga oshirilmagan shahar ekanligini bildiradi. Sharg‘un esa deyarli barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha past natija ko‘rsatgan bo‘lib, monofunksional tog‘-kon shaharlariga xos muammolarni namoyon etmoqda: 1989–2016-yillarda uning aholisi atigi 6,5 foizga o‘sgan.

3-jadval

Surxondaryo viloyati kichik shaharlarining funksional tipologiyasi

Tip	Shahar	Yetakchi funksiyalar	Geografik o‘rni	Rivojlanishni belgilovchi asosiy omillar
Ko‘p funksiyali tumanlararo markaz	Denov	Savdo, transport, agrosanoat, ta’lim, tibbiyot, turizm	Vodiy, chegaraoldi	Transport tuguni, yirik bozor, chegaraoldi savdo, tarixiy yodgorliklar
Transport-tranzit va energetika	Sherobod	Tranzit xizmatlari, agrosanoat, energetika	E60 yo‘lagi, tog‘oldi	Xalqaro yo‘lak, quyosh energetikasi, rekreatsion resurslar
Sanoat (neft) – agrosanoat	Jarqo‘rg‘on	Neft qazib olish, paxta tozalash, qurilish materiallari	Termiz aglomeratsiyasi zonasi	Neft konlari, Termizga yaqinlik
Agrosanoat – yengil sanoat	Sho‘rchi	Don va paxtani qayta ishlash, to‘qimachilik, mebel	Vodiy markazi	Sug‘oriladigan yerlar, mehnat resurslari
Transport-logistika	Qumqo‘rg‘on	Temir yo‘l tuguni, agrosanoat	Vodiy, yo‘llar tutashgan joy	Temir yo‘l yo‘nalishlarining tutashuvi
Rekreatsion-turistik va madaniy meros	Boysun	Turizm, hunarmandchilik, tog‘-kon sanoati	Tog‘ (1217 m)	Tabiiy va madaniy meros, temir yo‘l
Monofunksional tog‘-kon	Sharg‘un	Toshko‘mir qazib olish	Tog‘	Ko‘mir koni

Manba: *muallif ishlanmasi.*


Natijalarning barqarorligini tekshirish uchun sezgirlik tahlili o‘tkazildi. Barcha ko‘rsatkichlarga teng vazn (0,125) berilganda indeks qiymatlari quyidagicha bo‘ldi: Denov – 0,64; Sherobod – 0,62; Jarqo‘rg‘on – 0,53; Sho‘rchi – 0,52; Qumqo‘rg‘on – 0,46; Boysun – 0,39; Sharg‘un – 0,11, ya’ni shaharlarning o‘rinlari to‘liq saqlandi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar vazni oshirilgan variantda (X4 – 0,25, X5 – 0,15, X8 – 0,05) Sherobod va Jarqo‘rg‘on (0,61) birinchi o‘ringa ko‘tarilib, Denov (0,57) uchinchi o‘ringa tushdi, biroq Boysun (0,28) va Sharg‘un (0,15) ikkala variantda ham past

guruhda qoldi. Demak, olingan natijalar vaznlarni tanlashga nisbatan barqaror. Sezgirlik tahlili ikki xil rivojlanish modelini ham ajratish imkonini berdi: Denov yetakchiligi uning “markaziy o‘rin” sifatidagi salohiyatiga (aholi soni, funksional xilma-xillik), Sherobod va Jarqo‘rg‘onning yuqori o‘rni esa sanoat ko‘rsatkichlari va Termizga yaqinligiga asoslangan – ya’ni “xizmat ko‘rsatish markazi” va “ishlab chiqarish markazi” modellari.

Integral baholash natijalari, shaharlarning yetakchi funksiyalari va geografik o‘rni asosida kichik shaharlarning funksional tipologiyasi ishlab chiqildi (3-jadval, 2-rasm).

2-rasm.

Surxondaryo viloyati kichik shaharlarining funksional tiplari va rivojlanish darajasi (sxematik karta)



Manba: *Karta-sxema muallif ma’lumotlarigaga asosan sun’iy intellekt tizimida chizilgan.*

Kartadan ko‘rinib turibdiki, kichik shaharlarning funksional tiplari ularning hududiy joylashuvi bilan qonuniy aloqadorlikda bo‘lgan. Surxondaryo vodiysi bo‘ylab cho‘zilgan Termiz – Jarqo‘rg‘on – Qumqo‘rg‘on – Sho‘rchi – Denov o‘qida agrosanoat, transport-logistika va ko‘p funksiyali markazlar joylashgan; g‘arbdagi E60 yo‘lagida Sherobod tranzit funksiyasini bajaradi; tog‘ hududlarida esa rekreatsion (Boysun) va tog‘-kon (Sharg‘un) shaharlari shakllangan. Muhimi shundaki, viloyat kichik shaharlari funksional jihatdan bir-birini takrorlamaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi.

Bu ularni yagona hududiy tizim sifatida rivojlantirish – har bir shaharning ixtisoslashuvini kuchaytirish va ular o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Surxondaryo viloyati kichik shaharlari aholi soni, iqtisodiy salohiyati va geografik o‘rni bo‘yicha keskin tabaqalashgan; aholi soni bo‘yicha farq qariyb 7 baravar, aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish bo‘yicha qariyb 3 baravarni tashkil etadi;

sakkiz ko‘rsatkichli integral indeks bo‘yicha kichik shaharlar uch guruhga ajratildi: rivojlanish darajasi yuqori (Denov – 0,64; Sherobod – 0,62), o‘rta (Jarqo‘rg‘on – 0,57; Sho‘rchi – 0,53; Qumqo‘rg‘on – 0,45) va past (Boysun – 0,34; Sharg‘un – 0,14); sezgirlik tahlili natijalarning barqarorligini tasdiqladi;

kichik shaharlar yettita funksional tipga ajratildi, ular funksional jihatdan bir-birini to‘ldiradi va hududiy joylashuvi bilan qonuniy bog‘langan.

Olingan natijalar asosida quyidagilar taklif etiladi: Denov shahrini viloyatning ikkinchi darajali o‘sish qutbi sifatida tumanlararo savdo-logistika, agrosanoat va ta’lim markazi yo‘nalishida rivojlantirish; Sherobod va Qumqo‘rg‘onda tranzit-servis va multimodal logistika majmualarini barpo etish; Jarqo‘rg‘on va Sharg‘un iqtisodiyotini kichik sanoat zonalari va resurslarni chuqur qayta ishlash orqali diversifikatsiya qilish; Boysunni tog‘ turizmi va madaniy meros markazi sifatida rivojlantirish. Taklif etilgan baholash uslubiyati har yili yangi statistik ma’lumotlar asosida takrorlanib, kichik shaharlar rivojlanishining monitoring vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5623-son Farmoni. – https://lex.uz/docs/4154818
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
3. Лаппо Г.М. География городов. – М.: ВЛАДОС, 1997.
4. Перцик Е.Н. География городов (геоурбанистика). – М.: Высшая школа, 1991.
5. Christaller W. Die zentralen Orte in Süddeutschland. – Jena: Gustav Fischer, 1933.
6. Lösch A. Die räumliche Ordnung der Wirtschaft. – Jena: Gustav Fischer, 1940.
7. Perroux F. Note sur la notion de pôle de croissance // Économie appliquée. – 1955. – № 8. – P. 307–320.
8. Friedmann J. Regional Development Policy: A Case Study of Venezuela. – Cambridge (MA): MIT Press, 1966.
9. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K. Shaharlar geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Namangan davlat universiteti elektron kutubxonasi. – B. 145.
10. European Commission, FAO, UN-Habitat, ILO, OECD, The World Bank. Applying the Degree of Urbanisation: A Methodological Manual to Define Cities, Towns and Rural Areas for International Comparisons. – Luxembourg: Publications Office of the EU, 2021.
11. OECD, JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008.
12. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Hududlar bo‘yicha shahar va qishloq aholisi soni (2010–2026-yillar, yil boshiga). – https://surxonstat.uz/media/com_dropfiles/286/8.pdf
13. Qurbonaliyeva H.I. O‘zbekistonda kichik va o‘rta shaharlarni rivojlantirishning ahamiyati // Oriental Renaissance: ilmiy konferensiya materiallari. – 2024. – B. 277–281.

14. Qurbonov P. R. Iqlim o’zgarishi sharoitida tekislik mintaqasi shaharlarining rivojlanish xususiyatlari (Janubiy O’zbekiston misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 210-214.

15. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi: 2025-yil yanvar–sentabr oylari uchun (press-reliz, 19.10.2025). – https://www.surxonstat.uz/uploads/2025/Oktabr/Sanoat_Sentabr25.pdf

16. Qurbonov P. R., Botirov B. Z. The impact of global climate change on urban development //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 613-616.

17. Kun.uz. O‘zbekiston aholisi kuniga o‘rtacha 1 700 kishiga ko‘paymoqda – Statistika qo‘mitasi. 15.04.2025. – https://kun.uz/en/news/2025/04/15

18. Qurbonov P. O ‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 3. – С. 165.

19. Qurbonov P. R. Janubiy O ‘zbekiston yer usti tuzilishining urbanizatsiya jarayonlari va shaharlar taraqqiyotiga ta’siri //SCIENCE and SOCIETY. – 2025. – №. 5-1. – С. 40-42.